



**O'ZBEKISTON VA QIRG'IZISTON IQTISODIY ALOQALARI:
MUAMMOLAR, ISTIQBOLLAR VA HAMKORLIK YO'NALISHLARI.**

Abdurazzakov Diyorbek Iqtisodiyot yo'nalishi 4-kurs talabasi

Ilmiy rahbar:

Egamberdiyev Xumoyun Iqtisodiyot fakulteti Iqtisodiyot kafedrası (PhD)

dotsent

Alfraganus Universiteti

Annotatsiya; Mazkur tezis O'zbekiston va Qirg'iziston Respublikasi o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarning hozirgi holati, rivojlanish yo'nalishlari, mavjud muammolar va ularni hal etish bo'yicha istiqbolli chora-tadbirlarni tahlil qilishga bag'ishlangan. Markaziy Osiyodagi strategik hamkor davlatlar bo'lgan O'zbekiston va Qirg'iziston o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar, ayniqsa, so'nggi yillarda yangi bosqichga ko'tarildi. Ayniqsa 2017-2024 yillar oralig'ida ikki tomonlama savdo, transport-logistika, energetika, qo'shma ishlab chiqarish va turizm sohalarida sezilarli o'sish kuzatildi. Tezisda ikki davlat o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarning tarixiy rivojlanish bosqichlari, o'zaro savdo hajmidagi o'sish dinamikasi grafik ko'rinishda tahlil etiladi. Bunda O'zbekistonning tabiiy gaz, sanoat mahsulotlari va oziq-ovqat eksporti, Qirg'izistonning esa gidroenergetika va qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan almashinuvi o'z aksini topgan. Shuningdek, iqtisodiy munosabatlardagi asosiy muammolar-suv-energetika ziddiyatlari, chegara masalalari, bojxona tartiblaridagi farqlar, savdo muvozanatsizligi va transport infratuzilmasidagi cheklovlar alohida ko'rib chiqiladi. Tezisda bu muammolarni hal etish uchun tavsiya etilgan yechimlar, xususan, raqamli iqtisodiy integratsiya, qo'shma infratuzilma loyihalari, ko'p tomonlama institutlar orqali hamkorlik va iqtisodiy siyosatni muvofiqlashtirish taklif etiladi.



Kalit so'zlar: Energetika, transport, integratsiya, suv muammosi, chegara, Markaziy Osiyo, O'zbekiston, Qirg'iziston, iqtisodiy hamkorlik, savdo aloqalari.

O'zbekiston va Qirg'iziston Markaziy Osiyo mintaqasida geografik yaqinligi, tarixiy, madaniy ildizlari va iqtisodiy manfaatlari jihatidan o'zaro uzviy bog'langan davlatlardir. Ikkala davlat ham mintaqaviy hamkorlik va iqtisodiy integratsiyani kuchaytirish tarafdoridir. So'nggi yillarda o'zaro savdo, energetika, transport-logistika va turizm sohalarida sezilarli siljishlar kuzatilmoqda. Shunga qaramay, hali to'liq yechimini topmagan muammolar ham mavjud.

Bugungi globallashuv jarayonida davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, geografik, tarixiy va madaniy jihatdan yaqin bo'lgan davlatlar - jumladan, O'zbekiston va Qirg'iziston o'rtasidagi hamkorlik aloqalari mintaqaning barqaror rivojlanishi uchun muhim omil hisoblanadi. So'nggi yillarda ikki davlat o'rtasidagi savdo-iqtisodiy munosabatlar sezilarli darajada faollashdi. Bu holat nafaqat ikki tomonlama manfaatlar asosida shakllanmoqda, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasida integratsion jarayonlarni kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Ushbu tezisda O'zbekiston va Qirg'iziston o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarning hozirgi holati, mavjud muammolar, istiqbollar va hamkorlik yo'nalishlari tahlil qilinadi.

O'zbekiston va Qirg'iziston mustaqillik yillarida ikki tomonlama iqtisodiy aloqalarni qayta shakllantirdi. 2017 yildan keyin ikki davlat rahbarlarining siyosiy irodasi tufayli iqtisodiy hamkorlikda yangi bosqich boshlandi. 2022-yilda o'zaro savdo hajmi 1 milliard AQSH dollaridan oshdi.

Ya'ni Savdo hajmi o'smoqda: 2020-yilda ikki davlat o'rtasidagi savdo hajmi 550 mln AQSH dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib bu ko'rsatkich 1,25 milliard dollardan oshdi. Asosiy eksport-import mahsulotlari:



·O'zbekiston Qirg'izistonga tabiiy gaz, benzin, sement, avtomobillar ehtiyot qismlari, oziq-ovqat (un, yog', qandolat mahsulotlari), to'qimachilik mahsulotlarini yetkazib beradi

·Qirg'iziston O'zbekistonga gidroenergiya, meva-sabzavot, sut mahsulotlari, paxta tolasi, charm buyumlari eksport qiladi.

·Energetika: O'zbekiston Qirg'izistonga gaz eksport qiladi, Qirg'iziston esa gidroenergiya bilan almashadi. Gaz va elektr almashinuvi mavjud: O'zbekiston Qirg'izistonga tabiiy gaz eksport qilmoqda, ayniqsa qishda. Aksincha, Qirg'iziston yoz oylarida O'zbekistonga elektr energiyasi (asosan gidroelektrostansiyalardan) uzatadi.

·Suv-energetika muammosi: Qirg'iziston suv resurslariga boy, ammo suvdan energiya olishga ustuvorlik beradi. O'zbekiston esa daryolarning quyi oqimida joylashganligi sababli irrigatsiya uchun suvga ehtiyoj sezadi. Bu mintaqada muvozanatli siyosat yuritishni talab qilad

·Transport-logistika: Temir yo'l va avtomobil yo'llari orqali tranzit hamkorligi kengaymoqda. Transport infratuzilmasi yomon emas, lekin to'liq ishlamaydi:

·Qirg'iziston va O'zbekistonni bog'lovchi “Andijon-O'sh” avtomobil yo'li faol ishlamoqda.

·Temir yo'l transportida esa “Xitoy-Qirg'iziston-O'zbekiston” temir yo'li loyihasi yillardan buyon rejalashtirilmoqda, lekin hali amalga oshmagan.

·Chegara postlarida navbatlar va infratuzilma muammolari savdoni sekinlashtiradi.



·Turizm va madaniy almashinuv: Vizasiz rejim va o'zaro madaniy tadbirlar turizm hajmini oshirmoqda. 2018-yildan boshlab O'zbekiston va Qirg'iziston fuqarolari 60 kungacha vizasiz harakatlana oladi.

·O'zaro turistik oqim o'smoqda:

·Qirg'iziston fuqarolari Farg'ona vodiysidagi tarixiy joylarga (Andijon,Namangan, Farg'ona) borishni afzal ko'radi.

·O'zbekistonliklar esa Qirg'izistondagi tog'li hududlarga (Issiqko'l, O'sh,Jalolobod) sayohat qiladi.

·Madaniy tadbirlar (qo'shma festivallar, konsertlar, do'stlik kechalari) har yili o'tkazilib kelmoqda.

Hozirda Raqamli iqtisodiyot sohasida hamkorlik (elektron bojxona, raqamli to'lov tizimlari integratsiyasi). Ko'p tomonlama loyihalar (masalan, "China-Kyrgyzstan-Uzbekistan" temir yo'l loyihasi). Qo'shma ishlab chiqarishlar: tekstil,oziq-ovqat, farmatsevtika sohalarida. Mintaqaviy institutar orqali integratsiya:Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (ECO), O'zbekiston-Qirg'iziston-Qozog'iston hamkorlik uchburchagi kabi mustaqil do'stlik aloqalari tiklanmoqda. O'zbekiston va Qirg'iziston o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar salohiyati yuqori bo'lib, mavjud muammolarga qaramay, hamkorlik istiqbollari keng. Tashqi siyosiy barqarorlik,chegara masalalarining hal qilinishi, iqtisodiy islohotlar va o'zaro ishonch mintaqaviy iqtisodiy integratsiyani mustahkamlashga xizmat qiladi.

O'zbekiston va Qirg'iziston o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar Markaziy Osiyodagi mintaqaviy integratsiya va barqaror taraqqiyotda muhim o'rin tutadi. So'nggi yillarda ikki davlat o'rtasida savdo hajmining ortib borayotgani, qo'shma loyihalarning amalga oshirilayotgani va transport-logistika sohasidagi hamkorlik istiqbollari ijobiy natijalarni ko'rsatmoqda. Xususan, sanoat kooperatsiyasi,qishloq xo'jaligi,



turizm va innovatsion texnologiyalar sohalarida strategik hamkorlikni chuqurlashtirish har ikki davlat manfaatlariga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.O'zbekiston Respublikasi Tashqi savdo vazirligi ma'lumotlari.
- 2.Qirg'iziston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi statistik hisobotlari,2023.
3. Ganiev Sh.R., "Markaziy Osiyo iqtisodiy integratsiyasi", Toshkent, 2022.
- 4.UNDP Regional Report,"Cross-border cooperation in Central Asia",2023.
5. Akramova M., "Suv resurslari va mintaqaviy xavfsizlik",“Iqtisodiy taraqqiyot”jurnali,2021.
- 6.World Bank,“Kyrgyz Republic Economic Update", 2023.